


2
0
2
4

№ 5



Muhandislik va Iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy,
innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid
ilmiy-amaliy jurnal



- 05.01.00 – Axborot texnologiyalari, boshqaruv va kompyuter grafikasi
- 05.01.01 – Muhandislik geometriyasi va kompyuter grafikasi. Audio va video texnologiyalari
- 05.01.02 – Tizimli tahlil, boshqaruv va axborotni qayta ishlash
- 05.01.03 – Informatikaning nazariy asoslari
- 05.01.04 – Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta'minoti
- 05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi
- 05.01.06 – Hisoblash texnikasi va boshqaruv tizimlarining elementlari va qurilmalari
- 05.01.07 – Matematik modellash
- 05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt
- 05.02.00 – Mashinasozlik va mashinashunoslik
- 05.02.08 – Yer usti majmualari va uchish apparatlari
- 05.03.02 – Metrologiya va metrologiya ta'minoti
- 05.04.01 – Telekommunikatsiya va kompyuter tizimlari, telekommunikatsiya tarmoqlari va qurilmalari. Axborotlarni taqsimlash
- 05.05.03 – Yorug'lik texnikasi. Maxsus yoritish texnologiyasi
- 05.05.05 – Issiqlik texnikasining nazariy asoslari
- 05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari
- 05.06.01 – To'qimachilik va yengil sanoat ishlab chiqarishlari materialshunosligi
- 05.08.03 – Temir yo'l transportini ishlatish
- 05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar
- 05.09.04 – Suv ta'minoti. Kanalizatsiya. Suv havzalarini muhofazalovchi qurilish tizimlari



Muhandislik va Iqtisodiyot

*Elektron nashr,
542 sahifa, dekabr, 2024-yil.*

*ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal*

BOSH MUHARRIR:

Zokirova Nodira Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Shakarov Zafar G'afforovich, iqtisodiyot fanlari doktori, PhD

TAHRIR HAY'ATI:

Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor, akademik

Sharipov Kongratbay Avazimbetovich, texnika fanlari doktori, professor

Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shaumarov Said Sanatovich, texnika fanlari doktori, professor

Turayev Bahodir Xatamovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Allayeva Gulchexra Jalgasovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Arabov Nurali Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Maxmudov Odiljon Xolmirzayevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Xamrayeva Sayyora Nasimovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bobonazarova Jamila Xolmurodovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Irmatova Aziza Baxromovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bo'taboyev Muhammadjon To'ychiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxuja kizi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor, TDIU kengash kotibi

Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Amanov Otabek Amankulovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Qurbonov Samandar Pulatovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Zikriyoyev Aziz Sadulloyevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tabayev Azamat Zaripbayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sxay Lana Aleksandrovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Norboev Odil Abraevich, Iqtisodiyot nazariyasi kafedrasida dosenti

Ismoilova Gulnora Fayzullayevna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Djumaniyazov Umrbek Ilxamovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kasimova Nargiza Sabitdjanovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kalanova Moxigul Baxritdinovna, dotsent

Ashurzoda Luiza Muxtarovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Sardor Begmaxmat o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Botirali Roxataliyevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor

Tursunov Ulug'bek Sativoldiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Bauyetdinov Majit Janizaqovich, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD

Botirov Bozorbek Musurmon o'g'li, Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sultonov Shavkatjon Abdullayevich, Kimyo fanlari doktori, (DSc)

Muhandislik va Iqtisodiyot

Ma'lumot uchun, OAK
Rayosatining 2024-yil
28-avgustdagi 360/5-son
qarori bilan "Dissertatsiyalar
asosiy ilmiy natijalarini chop
etishga tavsiya etilgan milliy
ilmiy nashrlar ro'yxati"ga
texnika va iqtisodiyot fanlari
bo'yicha "Muhandislik va
iqtisodiyot" jurnali ro'yxatga
kiritilgan.

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz:

1. Toshkent shahridagi G. V. Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
2. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
3. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti
4. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
5. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
6. Toshkent davlat transport universiteti
7. Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
8. Toshkent kimyo-texnologiya universiteti
9. Jizzax politexnika instituti



MUNDARIJA

Sanoat tarmoqlari raqobatbardoshligini ta'minlash jarayonlarini iqtisodiy-matematik modellash	19
Tursunov Bekmuxammad Omonovich	
Yangi o'zbekistonda turmush tarzining shakllanishi va jamiyat taraqqiyotidagi o'ri	27
Axunov Muhammadamin Abduvasitovich	
Radiolokatsion uzatmalar yordamida gaz ballonli avtomobillar texnik ekspluatatsiyasini nazorat qilish	32
Mirzayev Bahodir Nuriddinovich, Zulfiqorova Guldona Akbarjon qizi	
Moliya tizimini barqarorlashtirishning ustuvor yo'nalishlari	37
Nazarov G'ayrat Xayrullayevich, Ollokulova Feruza Mansurovna	
Quyosh elektronikasida polikristallarning qo'llanilishi	42
Xoliqov Alimardon Sultonovich	
Статистический анализ производства плодоовощественной продукции в Республике Узбекистан	48
Анорбоева Бахтижамол Данияр кизи	
Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida "O'zbekneftgaz" aksiyadorlik jamiyatida innovatsion faoliyatni rivojlantirishning nazariy asoslari	57
Yuldoshev Sobir Fayzullaevich	
Raqamlashtirish va sanoat korxonalarining innovatsion salohiyatini statistik tahlil qilish	63
Jalolov Ilhomjon Isomiddinovich	
Пути развития фондового рынка на основе цифровых технологий	70
Шукурова Луиза Баратовна, Эшдавлатов Боймурод Соатович	
Mathematical model and analytical solutions of the process of physics-chemical hydrodynamics	76
Ismanova Klara Dulanbaevna	
Meva-sabzavot mahsulotlari ishlab chiqarish jaryonlarining ekonometrik va statistik tahlili	84
Jo'rayev Olim Albayevich	
O'zbekistonda raqamli iqtisodiyotni o'ri	91
Mardanaqulov To'liqin	
Studying the calculation process of gear geometry transmission in C++ and excel programs	95
Uzoqov Farxod G'afforovich	
Прогнозирование ожидаемых экономических изменений с корреляционно-регрессионного анализа (в примере: "NAFIS TEX GROUP" МСН)	101
Уринов Адхамджан Акбарович	
Современные модели поведения промышленных предприятий в условиях привлечения инвестиций	106
Матчанов Умирзак Сейтжанович	
Управление инвестициями в развитие человеческого капитала как фактор повышения конкурентоспособности промышленных	112
Тилляходжаев А.А.	
алгоритмы принятия решений в управлении технологическими процессами подземного выщелачивания	119
Исманова Клара Дуланбоевна	



Kvant o'rali yarimo'tkazgichlarda optik yutilish koeffitsientini foton energiyasiga bog'liqligi.....	127
Sayidov Nozimjon Abdulnosirovich	
Malein kislota angidridini oksidlab oksiran olish.....	133
Muhiddinov Baxodir Faxriddinovich, Xamroyev Kamoliddin Shaxobiddinovich, Qiyomov Sharifjon Nizomovich, Xusanov S.Y.	
Tadbirkorlik subyektlarini sug'urtalashning mintaqaviy xususiyatlari	138
Shuxrat Jalolidinovich Mamadjanov	
Jin mashinasining paxta tozalashdagi unumdorligini tahlil qilish va modellashtirish.....	144
Mirzakarimov Mirsharoffiddin Mirzaabdurahimovich	
Kichik biznesni moliyaviy qo'llab-quvvatlash va ularni eksport salohiyatini oshirish.....	151
Daniyarov Kuvatbay Daurxanovich	
O'zbekiston ipoteka bozorida "ESKROU" tizimini joriy qilinishi.....	156
Abdullayev Muhammadsodiq Isroil o'g'li	
Korxonalarning moliyaviy-iqtisodiy ko'rsatkichlarini ekonometrik tahlili qilish masalalari.....	161
Jalilov Bahrom Sotiboldievich	
Noaniqlik sharoitida moliyaviy operatsiyalar narxini baholashning nazariy asoslari.....	166
Muradov Rustamjon Sobitxonovich	
Elektr transport vositalarining paydo bo'lish evolyutsiyasi va batareyalarning kamchiliklarini hal qilinishi kerak bo'lgan muammolari.....	171
Moydinov Dilyorbek Abidjanovich, Zokirjonov Azizbek Zokirjon o'g'li	
Maishiy xizmat ko'rsatish sohasining rivojlanishi.....	179
Israilov Rustam Ibragimovich	
Ishlab chiqarish samaradorligini baholash ko'rsatkichlari tizimi va baliqchilik tarmog'iga xos xususiyatlari.....	185
Aitimbetov Amirbek Qoishibekovich	
Tadbirkorlik faoliyati subyektlarida moliyaviy hisobotning xalqaro standartlarini qo'llash masalalari.....	189
Uzoqov Muhibillo Juraboevich	
Korporativ transformasiya sharoitida bank xizmatlarini takomillashtirishning ekonometrik tahlili.....	194
Baymuratova Madina Tursunboy qizi	
Iplarni turli muhitlarda namlikni o'zlashtirish ko'rsatkichlari	204
B.B.Mirzabaev, N.Yu.Sharibayev, B.T.Xolmurotov	
Un ishlab chiqarish korxonalarida donni sovuq konditsionerlash tizimining modellari va ularning tavsiflari.....	211
Akramova Gulhayo Abidovna, Yusupov Azamat Alijonovich	
Обоснование параметров ножа оборудования для резки плодоовощей.....	220
Худайбердиев Тохиржон Латифович	
Quritish usullarining zanjabil (zingiber officinale) ildizpoyasini kimyoviy tarkibiga ta'siri.....	226
Merganov Avazxon Turgunovich, Abdurasulov Abdurauf Xasanovich	
Sut bezi saraton kasalliklarini erta aniqlashda informativ belgilar majmuasini tanlash algoritmi	230
Nishanov Akhram Khasanovich, Mamajanov Rajmatilla Yakubjanovich, Xaidarov Sherali Islom o'g'li	
Vertical vibration analysis of conveyor with compound screw and belt bearing support.....	239
Marasulov Islombek Ravshanbek o'g'li	
Turkiston o'lkasidagi madrasalar holati XIX asr oxiri – XX asr boshlarida.....	250
Lukashova Natalya Mixaylovna	



Kichik biznes korxonalari tomonidan eksport mahsulotlari ishlab chiqarish konsepsiyasi.....	256
Boymirzayev Zokirjon Mashrabboyevich	
Qishloq joylar resurs salohiyatidan foydalanish samaradorligini baholashga uslubiy yondashuvlar	262
Tursunpo'latov Farxodjon Xoshimjon o'g'li	
Migratsiya jarayonlari va uni tadqiq etishning ilmiy-nazariy asoslari.....	269
Abdullayeva Gulhayot Shuhratovna	
Personnel policies and crisis management: modifying hr tactics during pandemics or economic downturns.....	276
Sarimsakov Bakhtiyor Rakhmonjanovich	
Tadbirkorlik subyektlari faoliyatini hukumat tomonidan moliya-kredit mexanizmi orqali qo'llab-quvvatlashning zaruriyati.....	280
Ergashev Otamurod Tashtemirovich	
Tijorat banklari reytingini aniqlashda aktivlar va kapital rentabelligi ko'rsatkichlarining tahlili	287
Maxmudov Omon Tuxtayevich	
Автоматизированная система эффективное управление перекрестками дорог для транспортных средств	292
Мамаджанов Рахматилла Якубджанович, Алиев Махмуд Муса оглы, Холбоев Алишер Бобохон оглы	
Роль железнодорожного транспорта в сфере туризма и развитие туризма в центральной азии	298
Мухамедова Ситора	
Raqamli iqtisodiyot sharoitida tijorat banklari faoliyatini transformasiyalashni takomillashtirish yo'llari.....	304
I.A. Yuldashev	
Tadbirkorlik subyektlarida innovatsion loyihalarni ekspertizadan o'tkazish mexanizmini takomillashtirish orqali innovatsion faoliyat samaradorligini oshirish.....	310
Ibrohimov Boburmirzo Baxtiyor o'g'li	
Tijorat banklari depozit operatsiyalarining bugungi kundagi holati hamda uni takomillashtirish yo'llari.....	317
Shamsiyev Nodir Muratovich	
Современное состояние демографического развития регионов Узбекистана	325
Цхай Лана Александровна	
Qurilish materiallar sanoatida klaster tizimidan foydalanishning xususiyatlari	335
Utarov Doniyorbek G'ayratbek o'g'li, Saidov Mash'al Samadovich	
Исследование состава, физико-химических и эксплуатационных свойств битумов.....	339
Хужакулов Азиз Файзуллаевич, Абдуллаева Шохиста Шухратовна	
Sanoat korxonalarining moliyaviy barqarorligini ta'minlash	344
Yuldashev Fozil Turapovich	
Tijorat banklari tomonidan kredit operatsiyalarining iqtisodiy samaradorligini oshirish mexanizmlari	350
Djumaniyazov Ikram Karimbayevich	
Umumta'lim muassasalari xarajatlarini moliyalashtirish choralari	355
Ummatov Avaz Muydinovich	
The production potential of developing agriculture in mountain and foothill areas.....	360
Abdulkhaeva Gulshan Makhmudovna	
Globallashuv jarayonlarini chuqurlashuvi davrida xalqaro turizmni rivojlanishi.....	366
Abdulxakimov Zuxrali Tursunaliyevich	



Server kompyuterning dasturiy ta'minoti va undan foydalanish.....	372
Otaxanov Nurillo Abdumalikovich, Aliyev Qaxramon Botirjonovich, Sayidov Nozimjon Abdunosirovich	
Tijorat banklari tomonidan resurslarni shakllantirish o'ziga xos xususiyatlari.....	390
Ortiqov Uyg'un Davlatovich	
Biznes jarayonlari raqobatbardoshligini oshirishni modellashtirish usullari	400
Xamidov Doston Rustam o'g'li	
Kichik biznes subyektlarida tashkil etilgan baliq yetishtirishga ixtisoslashgan xo'jaliklarning aylanma mablag'lari tarkibi va ularning samaradorligini baholash	406
Vazirov Azamat Yoqubjanovich	
Sug'urta bozorini milliy iqtisodiyotga integratsiya qilishning metodologik asoslari.....	412
Tuxtarova Maftuna Yo'ldoshboy qizi	
Tijorat banklari faoliyati barqarorligini reyting tizimi asosida baholashning turli usullari va xorij tajribasi	417
N.Q.Xolov	
Ta'lim klasterlarini tashkil etish va rivojlantirishdagi muammolar.....	422
Qo'chqarov Toxir Fayzulla o'g'li, Rashidov Rahmatullo A'lojonovich	
Yangi g'o'za tizmalarining ho'jalik va sifat belgilari	430
Boltaboyev Xusniddin Abdig'anievich	
Methods for assessing financial-economic security of enterprises of the industrial cluster.....	434
Kholikova Rukhsora Sanjarovna	
Эконометрический подход определения влияния цифровизации экономики на развитие страны	443
Сапаев Д.Х.	
O'zbekistonda xalqaro standartlarning qo'llanilish tartib-qoidalari.....	448
Maxmonov Uktam Ashirovich, Ahmedova Sitara Asqar qizi	
Ishlab chiqarish korxonalarida kadrlar tayyorlash strategiyasini takomillashtirish	454
Adashev Azimjon O'rinboyevich, Mamatqulov Rustam Muxammadkarimovich	
Fuqarolik jamiyati institutlarini rivojlantirishda davlat grantining yo'nalishlari.....	460
Xusanov Otabek Nishonovich	
Tadbirkorlik subyektlari eksport faoliyatida xalqaro standartlarni joriy etishning zamonaviy tamoyillari	467
Oqboyev Alisher Rasuljanovich	
Aksiyalarni ommaviy joylashtirish amaliyotlarini samarali tashkil etish masalalari.....	472
Mamatov Bahromjon Shavkatovich	
Sanoatda innovatsion loyihalarni moliyalashtirish.....	479
Shamansurova Zilola Abduvahitovna	
Mahalliy budjetlar daromadlari barqarorligini ta'minlash masalalari	491
Shoydaliyev Umid Eshquvat o'g'li	
O'zbekiston tijorat banklari tomonidan valyuta operatsiyalarini rivojlantirish mohiyati.....	498
Akbarov Husniddinjon Mo'ysin o'g'li	
Raqamli iqtisodiyot sharoitida innovatsiyalarni yo'lga qo'yish xususiyatlari.....	503
Mirzayev Qulmamat Jonuzoqovich, Mirzayeva Shirin Nodirovna	
Sug'urta tashkilotlarini moliyaviy barqarorligini ta'minlashda andarrayting xizmatidan foydalanish.....	510
Mirzoyev Sayfullo Fayzulloyevich	
Soliq ko'rsatkichlari o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik muammolari.....	516
Abdurasulov Alisher Abdurasulovich	



Tijorat banklari depozit operatsiyalarini rivojlantirishning yevropa tajribasi.....	521
I.I.Jo'rayev	
O'zbekistonda qimmatli qog'ozlar bozorining rivojlanish tendensiyalari	527
Ibodullaev Abror Axrorovich	
O'zbekiston pensiya tizimi islohotlarida xorijiy tajribani qo'llash	531
Zokirova Gavxar	
Mahalliy oziq-ovqat mahsulotlaridan foydalangan holda mehmonxonalarda ovqatlantirish tizimini ekologik barqarorlik asosida rivojlantirish.....	537
Yaxshiyev Xusniddin Tolibovich	



MAHALLIY OZIQ-OVQAT MAHSULOTLARIDAN FOYDALANGAN HOLDA MEHMONXONALARDA OVQATLANTIRISH TIZIMINI EKOLOGIK BARQARORLIK ASOSIDA RIVOJLANTIRISH



Yaxshiyev Xusniddin Tolibovich

Mustaqil izlanuvchi, (PhD)

<https://orcid.org/0009-0008-0651-4754>

h.yaxshiyev81@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada mehmonxona xo'jaliklarida oziq-ovqat xizmatlarini mahalliy mahsulotlar asosida ekologik barqarorlik tamoyillariga muvofiq tashkil etish zarurati yoritilgan. Xalqaro tajriba va O'zbekiston amaliyoti asosida sohaning hozirgi holati tahlil qilinib, asosiy muammolar, ularning sabablari va yechim yo'llari ko'rsatib o'tilgan. Mahalliy ishlab chiqaruvchilar bilan uzviy hamkorlik, chiqindilarni qayta ishlash, barqaror menyular joriy etish bo'yicha takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: mehmonxona xo'jaligi, ekologik barqarorlik, mahalliy mahsulotlar, chiqindilarni kamaytirish, yashil iqtisodiyot.

Abstract: This article explores the need to develop food services in hotels based on local food products and ecological sustainability principles. Through analysis of international best practices and Uzbekistan's current experience, the paper identifies main challenges, their causes, and possible solutions. Recommendations include fostering cooperation with local producers, reducing waste, and implementing sustainable menus.

Keywords: hotel industry, ecological sustainability, local food products, waste reduction, green economy.

Аннотация: В статье рассматривается необходимость развития системы питания в гостиницах на основе использования местных продуктов и принципов экологической устойчивости. На основе анализа международного опыта и текущей практики Узбекистана выделены основные проблемы, причины и предложены пути их решения. Авторы предлагают меры по установлению сотрудничества с местными производителями, переработке отходов и внедрению устойчивых меню.

Ключевые слова: гостиничное хозяйство, экологическая устойчивость, местные продукты, сокращение отходов, зелёная экономика.

KIRISH

So'nggi yillarda turizm sohasining jadal rivojlanishi fonida mehmonxona xo'jaliklarining oziq-ovqat bilan ta'minlash tizimi nafaqat xizmat sifati, balki ekologik barqarorlik mezonlari nuqtayi nazaridan ham muhim ahamiyat kasb etmoqda. Xususan, barqaror ovqatlanish tizimlari nafaqat mehmonlar

salomatligini ta'minlash, balki atrof-muhitga salbiy ta'sirni kamaytirish, uglerod izini qisqartirish va mahalliy iqtisodiyotni qo'llab-quvvatlash imkonini beradi. Shu nuqtayi nazardan, mahalliy oziq-ovqat mahsulotlaridan foydalanish, ularni qayta ishlash va iste'mol qilish zanjirini mehmonxona tizimiga integratsiya qilish ekologik va iqtisodiy jihatdan ahamiyatli strategiyalardan biri sifatida ko'rilmogda.

Mazkur maqola mehmonxona tizimida oziq-ovqat xizmatlarini ekologik barqarorlik tamoyillari asosida tashkil etish, ayniqsa mahalliy mahsulotlardan foydalanishning afzalliklari, mavjud muammolari hamda ularni bartaraf etish yo'llarini tahlil qilishga qaratilgan. Shu bilan birga, ushbu yondashuv orqali nafaqat ekologik yuklamani kamaytirish, balki qishloq xo'jaligi ishlab chiqaruvchilarining daromadini oshirish, hududiy iqtisodiy rivojlanishni rag'batlantirish va "barqaror turizm" konsepsiyasini amalda qo'llash imkoniyatlari ham keng yoritiladi. Maqola doirasida xalqaro tajribalar va mahalliy amaliyotlar solishtirilib, ekologik barqaror ovqatlantirish tizimini joriy etish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqiladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Oziq-ovqat xizmatlarini ekologik barqarorlik tamoyillari asosida tashkil etish masalasi zamonaviy ilmiy tadqiqotlarda keng o'rganilmoqda. Ushbu yo'nalishda birinchi navbatda Timothy and Melissen tomonidan olib borilgan ishlanmalar alohida e'tiborga molik. Ular "Sustainable Tourism" konsepsiyasi doirasida mehmonxona xo'jaliklarida oziq-ovqat xizmatlarini mahalliy manbalardan ta'minlash orqali uglerod izini kamaytirishning iqtisodiy va ekologik afzalliklarini tahlil qilgan. Ularning tadqiqotlarida barqaror oziq-ovqat ta'minoti tizimi turizm sektorida nafaqat ekologik, balki mintaqaviy iqtisodiy rivojlanishga ham xizmat qilishi mumkinligi asoslab berilgan.

Shuningdek, C. Michael Hall tomonidan olib borilgan izlanishlar mahalliy ishlab chiqaruvchilarning ovqatlanish tizimiga integratsiyasi orqali oziq-ovqat chiqindilarini kamaytirish, transport masofalarini qisqartirish va umumiy ekotizimga yuklamani kamaytirish imkonini taqdim etishini ko'rsatadi. U mehmonxonalarda mahalliy mahsulotlardan foydalanish barqaror iste'mol madaniyatini shakllantirishda muhim rol o'ynashini ta'kidlaydi.

Barbara R. Jones esa o'z izlanishlarida mahalliy oziq-ovqat mahsulotlariga asoslangan menyularni joriy etish orqali mehmonlar orasida ekologik ongini oshirish, hududga xos gastronomik turizmni rivojlantirish va mehmonxona brendi qadrini ko'tarish mumkinligini isbotlab bergan. U bunday yondashuvlar mijozlar sodiqligini oshirishi hamda xizmatlar diversifikatsiyasini rag'batlantirishini qayd etgan.

Yevropa Ittifoqining "Sustainable Food in Hospitality Sector" loyihasi doirasidagi tadqiqotlar esa ovqatlanish xizmatlarida organik va mahalliy mahsulotlardan foydalanishning amaliy natijalarini chuqur yoritadi. Loyiha tahlillarida ko'plab Yevropa mamlakatlari mehmonxonalarda mahalliy mahsulotlar ulushi oshgani sababli ekologik yuklama sezilarli darajada kamaygani ko'rsatilgan.

O'zbekistonda esa F.D. Jo'rayev va L.N. Khudoyorov kabi olimlar mehmonxona xo'jaliklarida ekologik tamoyillar asosida xizmat ko'rsatish modelini ishlab chiqishga harakat qilgan. Jumladan, ular Toshkent shahridagi bir qator mehmonxonalarda misolida mahalliy sabzavot, meva va go'sht mahsulotlari asosida tayyorlangan ovqatlar tahlilini o'tkazib, ularning ekologik va iqtisodiy ustuvor jihatlarini ko'rsatib bergan. Ularning fikricha, ichki qishloq xo'jaligi mahsulotlaridan foydalanish orqali valyuta chiqimini kamaytirish, logistika soddaligi va oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash mumkin.

Umuman olganda, ilmiy adabiyotlar ushbu yo'nalishning ekologik, iqtisodiy va madaniy jihatdan dolzarbligini ko'rsatadi. Mahalliy mahsulotlar asosida barqaror ovqatlanish tizimini shakllantirish turizm infratuzilmasining raqobatbardoshligini oshirishda, yashil iqtisodiyot tamoyillarini amalda tatbiq etishda muhim vosita bo'lib xizmat qilmoqda.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot doirasida asosiy ma'lumotlar Toshkent va Samarqand shaharlari mehmonxonalarda olib borilgan kuzatuvlar, intervyular va so'rovnomalardan orqali yig'ildi. Olingan ma'lumotlar sifatli tahlil usuli asosida kontent tahliliga tortildi, muammolar va mavjud amaliyotlar o'rtasidagi bog'liqliklar aniqlanib, tavsiyalar ishlab chiqildi.



TAHLIL VA NATIJALAR

Bugungi kunda mehmonxona xo'jaliklarida oziq-ovqat xizmatlarini ekologik barqarorlik tamoyillari asosida tashkil etish global turizm industriyasining ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylanmoqda. Xususan, ekologik jihatdan toza, mahalliy manbalardan olingan oziq-ovqat mahsulotlarini keng miqyosda qo'llash orqali xizmatlar sifati, mijozlar qoniqishi va atrof-muhitni muhofaza qilish kabi ko'plab omillar birgalikda ta'minlanadi. O'zbekiston kontekstida ushbu yo'nalish hali yetarli darajada rivojlanmagan bo'lib, mavjud amaliyotlar ko'proq import mahsulotlarga, tayyor yarimfabrikatlarga va ekologik ta'siri yuqori bo'lgan tashqi manbalarga tayanmoqda. Bu esa, bir tomondan, xizmatlar tannarxining ortishiga, boshqa tomondan esa atrof-muhitga zarar yetkazuvchi chiqindilar, ortiqcha transport energiyasi va resurslardan samarasiz foydalanishga olib kelmoqda.

Yevropa Ittifoqi, Yaponiya, Kanada kabi mamlakatlarda mehmonxonalarda ekologik barqaror oziq-ovqat xizmatlarini yo'lga qo'yish tajribasi ko'plab samarador yechimlarni taklif qilmoqda. Jumladan, mahalliy fermer xo'jaliklari bilan uzviy hamkorlikda ishlash, ovqatlar tarkibida qishloq xo'jaligi mahsulotlarining mavsumiyligini inobatga olish, chiqindilarni kompostlash va qayta ishlash orqali resurslarni tejash kabi mexanizmlar tizimli yo'lga qo'yilgan. Shuningdek, bu mamlakatlar aholisi orasida ekologik ong va mas'uliyat darajasi yuqori bo'lgani sababli, mahalliy mahsulotlar asosidagi menyular mijozlar tomonidan ijobiy qarshi olinmoqda. O'zbekiston sharoitida esa hali bu boradagi jarayonlar asta-sekinlik bilan shakllanmoqda. Yirik shaharlar – Toshkent, Samarqand, Buxoro va Xiva kabi hududlardagi ayrim mehmonxonalar bu borada dastlabki qadamlarni qo'yayotgan bo'lsa-da, ularning ko'pchiligi hali an'anaviy va ekologik jihatdan samarasiz ovqatlantirish modelidan voz kechgani yo'q.

Sohadagi asosiy muammolardan biri bu mahalliy mahsulotlar yetkazib beruvchilari bilan samarali va ishonchli hamkorlik tizimining yo'qligidir. Ko'pgina mehmonxonalar oziq-ovqat mahsulotlarini xarid qilishda doimiy va barqaror yetkazib beruvchilar bilan emas, balki oraliq vositachilar orqali ishlaydi. Bu esa nafaqat narxning ortishiga, balki mahsulotlar sifati va ekologik mezonlarga mosligining pasayishiga olib keladi. Ikkinchi muammo esa mehmonxona boshqaruvchilari va oshpazlarining barqaror ovqatlanish madaniyati va ekologik ovqat mahsulotlari haqidagi bilimlarining yetarli emasligidir. Uchinchi dolzarb muammo esa chiqindilarni boshqarish tizimining yetarli darajada yo'lga qo'yilmaganidir. Ko'pgina mehmonxonalarda ortiqcha oziq-ovqat chiqindilari chiqindixonaga yuboriladi, ular qayta ishlanmaydi va atrof-muhitga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Mazkur muammolarning yechimi sifatida bir qator strategik va institutsional chora-tadbirlarni ko'rish zarur. Avvalo, mahalliy fermerlar va ishlab chiqaruvchilar bilan bevosita va uzoq muddatli shartnomalarga asoslangan hamkorlik munosabatlarini shakllantirish lozim. Bu nafaqat mahsulotlar sifatini kafolatlaydi, balki logistika xarajatlarini kamaytiradi, oziq-ovqat ta'minotining barqarorligini ta'minlaydi. Mahalliy mahsulotlar geografik yaqinligi tufayli ekologik izni kamaytiradi, bu esa global iqlim o'zgarishiga qarshi kurashda muhim omil hisoblanadi. Shuningdek, mehmonxona oshpazlari va boshqaruvchilarini barqaror ovqatlanish bo'yicha malaka oshirish kurslari orqali tayyorlash zarur. Bunday dasturlar ularni ekologik toza mahsulotlarni tanlash, ovqat tayyorlashda chiqindilarni kamaytirish va barqaror menyular yaratish bo'yicha bilim va ko'nikmalar bilan ta'minlaydi.

Mehmonxonalarda chiqindilarni boshqarish tizimini takomillashtirish uchun esa kompostlash uskunalari, chiqindilarni saralash va ularni qayta ishlashga yo'naltirish mexanizmlari yo'lga qo'yilishi lozim. Davlat siyosati darajasida esa barqaror ovqatlanish tizimiga o'tgan mehmonxonalar uchun soliq imtiyozlari, grantlar, subsidiya va tanlov asosidagi moliyaviy ko'maklar berilishi ushbu yo'nalishni jadallashtirishga xizmat qiladi. Turizm va mehmonxona xizmatlarini litsenziyalash, akkreditatsiya qilish va reyting berishda ham ekologik mezonlarni kiritish, mahalliy mahsulotlar ulushi, chiqindilarni boshqarish tizimi, energiya va suvdan foydalanish samaradorligi kabi indikatorlar asosida baholash tizimini joriy etish kerak bo'ladi.

Shuningdek, iste'molchilar orasida barqaror oziq-ovqat madaniyatini shakllantirish ham muhim. Mehmonxonalar o'z menyularida ekologik mahsulotlar asosida tayyorlangan ovqatlarni maxsus belgilar bilan ajratib ko'rsatish, ularning kelib chiqish manbai, ishlab chiqaruvchisi va ekologik ustunliklari haqida axborot berish orqali mijozlarda ushbu mahsulotlarga nisbatan qiziqish va talabni oshirishlari mumkin. Bu yondashuv barqaror iste'molni targ'ib qilish bilan birga, mehmonxona

brendining ijobiy qiyofasini shakllantiradi, raqobatbardoshligini oshiradi.

Quyidagi jadvalda Yevropaning bir qator yirik shaharlari bo'yicha turizm va ovqatlanish infratuzilmasining rivojlanish darajasi, ekologik zaiflik indeksi va ekologik salohiyat ko'rsatkichlari taqqoslab ko'rsatilgan (1-jadval).

1-jadval. Ekologik zaiflik va ekologik salohiyat ko'rsatkichlari.

Shahar	Turizm zichligi darajasi	Turizm intensivligi darajasi	Oziqlanish muassasalari mavjudligi darajasi	Ekologik zaiflik indeksi	Ekologik salohiyat darajasi
Amsterdam	4,3% (0,53)	10 950 (1,00)	15,0 (0,28)	0,60	43,3%
Antwerp	2,0% (0,86)	1 479 (0,09)	7,0 (0,08)	0,35	55,8%
Afina	5,3% (0,39)	1 932 (0,14)	9,0 (0,13)	0,22	75,8%
Barselona	5,8% (0,31)	2 569 (0,20)	23,3 (0,48)	0,33	67,3%
Bergamo	4,3% (0,52)	2 021 (0,15)	3,8 (0,00)	0,22	51,3%
Berlin	3,1% (0,70)	1 860 (0,13)	11,9 (0,20)	0,34	68,3%
Bolonya	2,5% (0,78)	1 623 (0,11)	13,3 (0,23)	0,37	51,0%
Bordo	1,5% (0,93)	6 715 (0,60)	5,3 (0,04)	0,52	50,9%
Bryussel	4,1% (0,55)	1 018 (0,05)	14,3 (0,26)	0,29	58,5%
Kopengagen	5,0% (0,42)	1 224 (0,07)	8,2 (0,11)	0,20	65,7%
Dublin	4,3% (0,53)	1 069 (0,06)	24,1 (0,50)	0,36	61,0%
Edinburg	2,6% (0,77)	2 746 (0,22)	17,3 (0,33)	0,44	45,6%
Florensiya	2,7% (0,75)	5 387 (0,47)	21,5 (0,44)	0,55	45,7%
Jeneva	7,9% (0,00)	1 710 (0,12)	12,2 (0,21)	0,11	70,3%
Gent	2,3% (0,81)	4 736 (0,41)	6,7 (0,07)	0,43	53,7%
Girona	2,1% (0,84)	498 (0,00)	9,4 (0,14)	0,33	59,4%
Lissabon	3,7% (0,61)	2 436 (0,19)	15,2 (0,28)	0,36	67,8%
London	2,8% (0,74)	764 (0,03)	40,4 (0,90)	0,56	70,8%
Lion	5,0% (0,43)	3 049 (0,24)	5,5 (0,04)	0,24	67,6%
Madrid	1,2% (0,97)	516 (0,00)	17,4 (0,33)	0,43	66,8%

Jadvaldan ko'rinib turibdiki, shaharlarda turizm zichligi, xizmatlar intensivligi va infratuzilmaning kengayganligi ekologik bosim darajasiga bevosita ta'sir ko'rsatmoqda. Masalan, Amsterdam va London kabi yirik shaharlarda ovqatlanish muassasalari soni yuqori (mos ravishda 15,0 va 40,4), bu esa ekologik zaiflik indeksining yuqori (0,60 va 0,56) bo'lishiga olib kelgan. Shunga qaramay, Londonning ekologik salohiyat darajasi 70,8% bilan yuqori baholangan, bu esa mavjud salohiyatni samarali boshqarish strategiyalariga ishora qiladi.

Aksincha, Afina, Barselona va Jenevada ekologik zaiflik past (0,11–0,33 oralig'ida) bo'lib, bu shaharlarda barqaror ekologik muvozanatni saqlashga alohida e'tibor qaratilayotganini ko'rsatadi. Ayniqsa, Jenevada eng past zaiflik indeksi (0,11) va yuqori ekologik salohiyat (70,3%) kuzatiladi.

Girona va Madridda esa turizm intensivligi va ovqatlanish xizmatlari ko'rsatkichlari nisbatan past bo'lsa-da, ekologik salohiyat 60% dan yuqori bo'lib, bu mintaqalarda turizm bosimi kam bo'lishiga qaramay, ekologik imkoniyatlardan oqilona foydalanish olib borilayotganini ko'rsatadi. Jadvalda keltirilgan ma'lumotlar shuni ko'rsatadiki, yuqori turizm zichligi va infratuzilma darajasi ekologik zaiflikni oshiradi. Shu sababli, mehmonxona va ovqatlanish sohalarida barqarorlikni ta'minlash uchun mahalliy mahsulotlardan foydalanish va yashil texnologiyalarni joriy etish dolzarb masala bo'lib qolmoqda.

Umuman olganda, mahalliy oziq-ovqat mahsulotlari asosida ekologik barqaror ovqatlantirish tizimini shakllantirish nafaqat mehmonxona xizmatlari sifatini oshirish, balki mamlakatda yashil



iqtisodiyot tamoyillarini amalga oshirish, ekologik xavfsizlikni ta'minlash, qishloq xo'jaligi ishlab chiqaruvchilarini qo'llab-quvvatlash va turizmning milliy modelini yaratish yo'lida muhim qadam bo'lib xizmat qilishi mumkin. Mazkur sohaning rivoji davlat, xususiy sektor va iste'molchilarning birgalikdagi harakati hamda uzoq muddatli strategik yondashuvni talab etadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Mehmonxonalarda oziq-ovqat xizmatlarini mahalliy mahsulotlar asosida ekologik barqarorlik tamoyillariga muvofiq tashkil etish nafaqat xizmat sifati va mijozlar ehtiyojini qondirish, balki atrof-muhitga salbiy ta'sirni kamaytirish, ichki ishlab chiqaruvchilarni qo'llab-quvvatlash va yashil iqtisodiyotni shakllantirishda ham muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

Ilmiy manbalar va amaliy tajribalar ushbu yondashuvning ekologik va iqtisodiy ustuvorliklarini yaqqol ko'rsatadi. Ushbu yo'nalishni rivojlantirish uchun, avvalo, mahalliy qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqaruvchilari bilan mehmonxona sektori o'rtasida barqaror hamkorlik tizimini yo'lga qo'yish zarur. Shuningdek, mahalliy mahsulotlarga asoslangan menyularni ishlab chiqish, logistika zanjirlarini soddalashtirish va ovqat chiqindilarini minimallashtirishga doir texnologiyalarni joriy etish talab etiladi.

Sohada ishlayotgan mutaxassislar uchun ekologik ta'lim va barqaror xizmat ko'rsatish tamoyillari asosida malaka oshirish dasturlarini yo'lga qo'yish ham ushbu tizim samaradorligini oshirishda muhim rol o'ynaydi. Bundan tashqari, davlat siyosatida mehmonxonalar tomonidan mahalliy va ekologik toza mahsulotlardan foydalanishni rag'batlantiruvchi imtiyozlar va soliq yengilliklarini belgilash, ushbu amaliyotni keng miqyosda tatbiq qilishga xizmat qiladi. Mazkur yondashuvni tizimli va izchil tarzda joriy etish orqali O'zbekistonning turizm infratuzilmasi yanada ekologik, iqtisodiy va madaniy jihatdan barqaror rivojlanish yo'lga kirishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Philip Kotler, John T. Bowen. Marketing for Hospitality and Tourism. – Boston: Pearson Education, 2017. – 688 p.
2. Mehdi Hassan, Yu Cheng. AI and Chatbot Applications in Hotel Management. – Singapore: Springer, 2019. – 214 p.
3. Xavier Font. Sustainable Marketing and Digitalization in Hospitality Industry. – London: Routledge, 2020. – 198 p.
4. JO'RAYEV F. D. Econometric modeling of the development and management of agricultural production based on cluster analysis (on the example of the 584 kashkadarya region) // Экономика. – T. 8. – C. 584-590.
5. Khudoyorov, L. N., Noraliyeva, S. S., & Baxronova, N. S. (2024). Development of digital economy and its role today. Экономика и социум, (5-1 (120)), 432-434.
6. D. Raximov. Mehmonxona xizmatlarida raqamli texnologiyalarni joriy etishning amaliy jihatlari. – Toshkent: Iqtisodiyot, 2021. – 192 b.
7. Dimitrios Buhalis, Sandra Leung. Smart Hospitality – Technology and Service Innovation. – Berlin: Springer, 2018. – 276 p.
8. Ilan Alon, Eugene Yi. Digital Transformation in the Service Sector. – New York: Nova Science Publishers, 2021. – 250 p.
9. Marianna Sigala. Social Media in Travel, Tourism and Hospitality. – Surrey: Ashgate Publishing, 2015. – 306 p.
10. Б. Иванов. Цифровые технологии в гостинично-ресторанном бизнесе. – М.: Финансы и статистика, 2020. – 284 с.
11. ZHENG, D., LUO, Q., RITCHIE, B.W. (2021). Afraid to travel after COVID-19? Self-protection, coping and resilience against pandemic 'travel fear'. Tourism Management, 83, 1, pp. 1–13. <https://doi.org/10.1016/j.tourman.2020.104261>.

Muhandislik va Iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2024. № 5

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №095310.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**

